




JOURNAL OF CONTEMPORARY WORLD STUDIES

VOLUME | 3 ISSUE | 7 DECEMBER 2025



AN ACADEMIC PLATFORM FOR IN-DEPTH
ANALYSIS OF THE CONTEMPORARY WORLD

VOLUME | 3 ISSUE | 7 | DECEMBER | 2025




JCWS

O‘ZBEKISTONDA AHOLINI MOLIYAVIY FAROVONLIKNI OSHIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Jumaniyozov Siroj Azimboy o‘g‘li

Toshkent davlat agrar universiteti “Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit” kafedrası o‘qituvchisi
e-mail: jumaniyozov.s@inbox.ru



ANNOTATION:

Mazkur maqolada hozirgi kunda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi hamda kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar chuqur o‘rganiladi, shuningdek, xorijiy mamlakatlar, xususan, Armaniston, Dominikana Respublikasi, Kolumbiya, Kosta-Rika, Meksika, Salvador, Chili kabi davlatlarning muvoffaqiyatli tajribalari tahlil qilinadi. Bu davlatlarda qo‘llanilgan samarali mexanizmlar va amaliy usullar O‘zbekiston sharoitida tatbiq qilingan mexanizmlar bilan solishtiriladi.

KEYWORDS:

Kambag‘allikni kamaytirish, muvoffaqiyatli tajribalar, chora-tadbirlar, model, samarali mexanizmlar, ta‘lim, oziq-ovqat xavfsizligi, shaxsiy xavfsizlik

Accepted Date:

December 15, 2025,

Published Date:

December 25, 2025

Journal Website: <https://d-pressa.com/index.php/jcws/>

License



This work is licensed under
a [Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/).

Kirish

O'zbekistonda mehnat bozori siyosati va mehnatga haq to'lash siyosatini takomillashtirishsiz bugungi kunda kambag'allik muammosini samarali hal etib bo'lmaydi. Aholiga manzilli ijtimoiy yordam dasturlarini ishlab chiqish zarurligini e'tirof etgan holda shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi sharoitda ushbu dasturlar ko'p jihatdan mehnatga layoqatli aholining aksariyat qismidagi yuqori darajadagi kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan. Agar davlat tomonidan belgilangan siyosati aholi bandligini oshirishga, yangi ish o'rinlarini yaratishga va mavjudlarini saqlab qolishning tashkiliy-moliyaviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, kambag'allik darajasini real pasaytirishga erishiladi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga yo'llagan Murojatnomasida 2023-yilda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan siyosatning ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Xususan, aholining turmush sharoitlarini yaxshilash, kambag'allikni bartaraf etish chora-tadbirlari mahalla miqyosida davom ettiriladi. Aholi tashabbus ko'rsatgan loyihalarni amalga oshirish uchun qariyb uch baravar ko'p, salkam 8 trillion so'm mablag' yo'naltirish ko'zda tutilgan.

Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirishni ta'minlovchi mexanizm ishga tushirilib, ular sharoiti va salohiyatidan kelib chiqib, besh toifaga ajratildi. Tadbirkorlar uchun subsidiya, kredit va kompensatsiyalarni toifalardan kelib chiqib ajratish ko'zda tutilgan. Ular uchun soliq stavkalari ham har xil bo'ladi. O'tgan yilda oilaviy biznes dasturi uchun 12 trillion so'm ajratildi. Bunday kreditlarning maksimal miqdori ortdi. Davlatimiz rahbarining 2023-yil 25-yanvardagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi

qaroriga asosan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida loyihalarni moliyalashtirish uchun "Agrobank" ATB, "Mikrokreditbank" ATB va AT Xalq bankiga 300 million dollar miqdorida mablag'lar uch yillik imtiyozli davr bilan yetti yil muddatga 10 foiz stavkada ajratildi.

"O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2020-yil 27-fevral kuni tadbirkorlik orqali kambag'allikni kamaytirish chora-tadbirlariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi. "Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, 12-15 % yoki 4-5 million kishi kambag'al. Demak, ularning bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmaydi. Yoki oilada mashina ham, uy hayvoni ham bo'lishi mumkin, lekin agar odam og'ir kasal bo'lsa, oila daromadining kamida 70 % foizi uni davolashga ketadi. Bunday oilani o'zini-o'zi ta'minlaydigan oila deb atash mumkinmi? Prezidentimiz xalqimiz hayotida nimalar bo'lyapti, oziq-ovqat, davolanish, ta'lim-tarbiya, farzandlari uchun kiyim-kechak kabi savollar har kuni qiynayapti. Yig'ilishda davlat rahbari yana qo'shimcha qildi: "Kambag'allikning qisqarishi oylik yoki pensiya nafaqalari, ommaviy kreditlar ko'payishini anglatmaydi. Buning uchun, birinchi navbatda, kasb-hunarga o'rgatish, moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik, infratuzilma, bolalarga ta'lim-tarbiya berish, sifatli davolash, manzilli imtiyozlar berishni yo'lga qo'yish zarur, - dedi Prezidentimiz. Ayni paytda O'zbekistonda 1,4 millionga yaqin rasman ishsiz ayollar va yoshlar bor. Ishsizlik darajasi ayollar o'rtasida 13 %, yoshlar o'rtasida 15 % ni tashkil etadi. Ayniqsa, Farg'ona, Samarqand, Andijon, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida bu ko'rsatkich yuqoridir. Shu bilan birga, qurilishda 104 ming, kommunal sohada 71 ming, xizmat ko'rsatish sohasida 68 ming, yengil

sanoatda 46 ming mutaxassisga bo‘lgan ehtiyojni inobatga olgan holda ushbu sohalarda chora-tadbirlar ishlab chiqish, ishsiz aholilarni mutaxassislikka tayyorlash zarur”¹

O‘tgan 2023-yil 18-mayda Toshkent shahrida **“Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni tatbiq etish”** II Xalqaro forumi bo‘lib o‘tdi. Forumda qayd etilishicha, aksariyat mamlakatlar kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishida faoliyatni xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari va to‘plangan tajribalarga tayangan holda tayyor amaliyot va strategiyalar asosida amalga oshirayotgan bo‘lsa, O‘zbekistonda qisqa muddatda kambag‘allikni qisqartirish sohasida o‘ziga xos tashkiliy dastur shakllantirilib, o‘tgan yili joriy etildi va o‘z ijobiy natijalarini ko‘rsatishni boshladi

Prezidentimizning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta’kidlanganidek, Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurish, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishi uchun zarur sharoitlar yaratish va kambag‘allikni qisqartirish maqsad qilingan.

Shundan kelib chiqib, ijtimoiy sohaga davlat xarajatlarini oshirish vazifasi qo‘yildi. Xususan, 2018 yilda 35 trillion, 2019 yilda 61,3 trillion, 2020 yilda 74,2

trillion, 2021-yilda 85,3 trillion so‘m ajratilgan. 2022 yilda esa 105,5 trillion so‘m yo‘naltirilgan.

2022 yil yakunlariga ko‘ra, kambag‘allik darajasi 17 foizdan 14 foizga kamaydi. Yangi ish o‘rinlarini yaratishga alohida e’tibor qaratildi. Yil davomida 200 mingga yaqin tadbirkorlik sub’ektlari tashkil etilib, 10 mingta korxonaning faoliyati kengaytirildi va 11 mingta korxon

quvvati tiklandi. Davlat dasturlari, jumladan, aholini kasb-hunarga o‘qitish, mahallalarda tadbirkorlikka ko‘maklashish sohasida amalga oshirilayotgani natijasida 1 million kishi kambag‘allikdan olib chiqildi.

Agar hukumat o‘z sa’y-harakatlarini faqat yuqorida qayd etilgan maqsadlardan biriga erishishga qaratsa, mutlaq kambag‘allikni kamaytirishga erishish juda qiyin bo‘ladi. Shu bois, hozirgi vaqtda “uchburchak” (Kambag‘allik, tengsizlik va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlik va ularning o‘zaro ta’siri) modeli ko‘plab xalqaro tashkilotlar tomonidan mamlakatlarning rivojlanish strategiyalarini va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda qo‘llanilib kelinmoqda.

Kambag‘allikning mamlakatning jismoniy yoki inson kapitalini to‘plash qobiliyatiga ta’siri salbiydir. Humberto Lopes va Luis Serven o‘zlarining “O‘shish uchun juda kambag‘al” asarlarida kambag‘allikning iqtisodiy o‘shishga ta’sirini ekonometrik tahlil qilib, kambag‘allikning iqtisodiy o‘shishga sezilarli salbiy ta’siri bor” degan xulosaga kelishdi va bu orqali kambag‘al aholi sonining 10 foizga ko‘payishi iqtisodiy o‘shishning 1 foiz punktga pasayishiga olib kelishini isbotlashdi. Ma’lumot uchun, O‘zbekistondagi minimal iste’mol xarajatlari miqdori 2021 yilda 440 ming so‘mni tashkil etgan, 2022 yil yanvaridan boshlab esa 498 ming so‘m deb belgilangandi. So‘nggi marta bu miqdor 2023 yil iyul oyida 498 ming so‘mdan 568 ming so‘mgacha, 2024 yilning yanvarida esa 568 ming so‘mdan 621 ming so‘mgacha oshirilgandi.

O‘zbekiston Respublikasida kambag‘al aholi ulushi 2010 yilda 2001 yilga nisbatan birinchi marta 10,0 foizga yaqin (aniqrog‘i 9,8 foiz) kamaygan. Bu esa

¹ Rasmiy prezident sayti: <https://xs.uz/uzkr/post/prezident-raisligida-kambagallikni-qisqartirish-masalalariga-bagishlangan->

videoselektor-jigilishi-boshlandi?utm_source=chatgpt.com

o'sha davrga nisbatan iqtisodiy o'sish 1,0 foizga oshgan deganidir. 2021 yilda esa 10,5 foizga kamayganini ko'rish mumkin va bu vaqt oralig'ida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy o'sishini 1,05 foizga o'sganligini belgilaydi. Tengsizlik innovatsion rivojlanish va kichik biznes rivojlanishini rag'batlantiradi. Salbiy ta'sir quyidagi omillar bilan bog'liq: imkoniyatlarning tengsizligi ta'lim va ish tanlashga salbiy ta'sir qiladi, davlat institutlari hamda siyosatining samarasizligiga va korrupsiya, fuqarolik nizolarining o'sishiga yordam beradi, shuningdek, aholi tomonidan davlat hokimiyati organlariga bo'lgan ishonch darajasini pasaytiradi. kambag'allikni kamaytirishga moliyaviy islohotlar bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bu odatda mamlakat iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlariga hamda islohotlar turiga bog'liq.

O'zbekistonda bandlik, ish haqi va qashshoqlikni kamaytirish yoki qashshoqlikka barham berish bilan bog'liq barcha masalalar kambag'allikni qisqartirish milliy dasturi doirasida hal etilishi mumkin.

Dasturda mehnatga layoqatli aholining qashshoqligini bartaraf etishda ikki yo'nalish bo'lishi kerak.

1.Mehnat bozorini rivojlantirish va takomillashtirish, shu jumladan bandlik va mehnatni rag'batlantirish, ish haqi tizimini takomillashtirish va uning unumdorligini oshirish, aholi o'rtasida kasb-hunar ta'limi va tadbirkorlikni rivojlantirish, barcha qulayliklarni yaratish odamlarning yaxshi mehnat va hayot kechirishi uchun shartsharoitlar yaratilishi qisqa muddatda iqtisodiy faol aholining qashshoqligini sezilarli darajada kamaytirishga, uzoq muddatda esa uni to'liq bartaraf etishga olib keladi. Bu mamlakat mehnat salohiyatini samarali amalga oshirishning asosiy sharti bo'lib, jamiyatda iqtisodiy, ilmiy-

texnikaviy va ijtimoiy taraqqiyotning poydevori hisoblanadi.

2.Kambaga'llikdan mustaqil ravishda chiqa olmaydigan mehnatga layoqatli aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashi lozim. Bankrotlikka olib keladigan pandemiyalar, texnogen va tabiiy ofatlar natijasida ommaviy ishsizlik yuzaga kelgan taqdirda alohida chora-tadbirlar ko'rish zarur. Ishga layoqatli aholiga davlat ijtimoiy yordamini keng ko'lamda amalga oshirishga yo'l qo'ymaslik, aksincha, mehnatga layoqatli aholiga davlat ijtimoiy yordamini o'z joyida ko'rsatishdan maksimal darajada voz kechish zarur. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan real yashash minimumi va kambag'allik chegarasini aniqlash, real eng kam ish haqi miqdorini belgilash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, albatta, o'zining samarali natijalarini berishi kerak.

Bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, ish haqi ko'proq ijtimoiy funktsiyani emas, balki iqtisodiy funktsiyani bajarishini ta'minlash kerak. Mehnat bozori va mehnat munosabatlarini tizimli ravishda isloh qilish zarur. Bu boradagi maxsus chora- tadbirlar bilan ijobiy natijalarga erishish mumkin emas. Iqtisodiyotning globallashuvi va xalqaro raqobatning kuchayishi sharoitida faol jamiyatni shakllantirish, korxonalar va ishchilarni jahon iqtisodiy muhitiga moslashishga yordam berish, ishchi kuchini mehnat bozorining doimiy o'zgarib turadigan talablariga moslashtirishga va iqtisodiy faol aholiga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish ustuvor ahamiyat qaratilmoqda.

Mehnatga layoqatli aholining mustaqil ravishda qashshoqlikdan chiqishi uchun sharoit yaratish quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

➤ ishchi kuchining raqobatbardoshligini oshirish va ish beruvchilar o'rtasidagi raqobatga asoslangan mehnat bozorini shakllantirish;

➤ barcha mamlakatlarda mavjud bo'lgan va ish tajribasi yoki ta'lim turi bilan izohlab bo'lmaydigan erkaklar va ayollarning ish haqi o'rtasidagi farq, ya'ni iqtisodiyotni tashqi savdo va investitsiyalar uchun ochish, bu gender farqini kamaytirishga yordam beradi;

➤ kasb-hunar ta'limi tizimini modernizatsiya qilish va talabni tashkil etish shartlarini chuqur o'rganishni yaratish;

➤ oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda tarmoqlar va hududiy talablardan kelib chiqqan holda qabul kvotalarini shakllantirish;

➤ hududiy bandlikka ko'maklashish markazlari, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari negizida o'quv va malaka oshirish majmualarini tashkil etish;

➤ biznes markazlari bilan birgalikda ishsiz fuqarolar va mehnatga layoqatli ishsizlarni tadbirkorlik asoslariga o'rgatish;

➤ oilaviy tadbirkorlik dasturlari bo'yicha mablag'larning 70% aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ish o'rinlari yaratishga qaratilgan kichik va o'rta biznes loyihalariga yo'naltirish;

➤ kam ta'minlangan aholi bandligini ta'minlovchi korxonalariga bank kreditlari berish;

➤ oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlashni uzoq muddatli prognozlash va dasturlash, ularni davlat va boshqa tashkilotlar buyurtmalari asosida taqsimlash amaliyotini joriy etish;

Kambag'allikni kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlari:

- Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik
- Ishlab chiqarishni rivojlantirish
- Ijtimoiy himoya va sog'liqni saqla

- Qishloq xo'jaligi va qishloq joylarini rivojlantirish


- Mehnat bozorini muvozanatlash.

Bu iqtisodiy mexanizmlar kanbag'allikni kamaytirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Ushbu strategiyalar orqali aholining turmush darajasini oshirish va mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hukumati mamlakatda kam ta'minlangan aholi sonini qisqartirish va jamiyat hayotida insonparvarlik tamoyillarini yanada rivojlantirish maqsadida Ming yillik rivojlanish maqsadlari doirasida bir qator majburiyatlarni zimmasiga olgan.

Mamlakatda aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda farovonlik barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, ekologik sharoiti og'ir hududlarni qo'llab-quvvatlash, aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatish va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu tashabbuslar aholining turmush sifatini yaxshilash va barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanish jarayonlari iqtisodiyotning salohiyati, barqarorligi va mutanosibligini mustahkamlash orqali ijtimoiy himoyani kuchaytirish va fuqarolarning turmush darajasini yaxshilash yo'nalishida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda aholining ijtimoiy himoyasi tizimini mustahkamlash, manzillilik darajasini oshirish va ijtimoiy himoyaning faol shakllarini joriy etish alohida ahamiyat kasb etdi.



1-rasm. Mustaqillik yillarida aholi turmush farovonligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari


O‘zbekiston Respublikasida aholining ijtimoiy muhofazasiga qaratilgan ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun huquqiy asoslarni yaratish va ushbu yo‘nalishda qabul qilingan qonunlarning ijrosini ta‘minlash bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Fuqarolarning ijtimoiy huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan. Konstitutsiyaning 46-moddasiga muvofiq, har bir shaxs qariganda, mehnat qobiliyatini yo‘qotganda, ishsizlikka uchraganda, boquvchisini yo‘qotganda yoki qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlarda ijtimoiy ta‘minot huquqiga ega. Shuningdek, qonunchilikka muvofiq pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordam miqdori belgilangan eng kam iste‘mol xarajatlaridan past bo‘lishi mumkin emas.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish jarayonida shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar mamlakatning umumiy

moliyaviy-iqtisodiy holatiga mos tarzda takomillashib boradi.

Ijtimoiy muhofazaga yo‘naltirilayotgan mablag‘larning miqdori mamlakatda amalga oshirilayotgan davlat dasturlariga va ijtimoiy siyosatning samaradorligiga bog‘liq.

Ijtimoiy siyosat mamlakatimizda davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning aniq manzilli xususiyatga egaligi har bir muhtoj shaxsga uning real ehtiyojlarini hisobga olgan holda yordam ko‘rsatish imkonini bermoqda. Bunda hech bir toifaga mansub inson e‘tibordan chetda qolmasligiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shu sababli jamiyatning ijtimoiy manzarasi tubdan o‘zgarmoqda, samarali boshqaruvning natijadorligi ortmoqda, eng muhimi, odamlarning hayotga, mehnatga, shuningdek, o‘z taqdiri va ertangi kunga bo‘lgan ishonchi mustahkamlanmoqda.



2-rasm. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlarini moliyalashtirish manbalari.

Ijtimoiy taʼminot tushunchasini oʻrganish natijasida olimlarning qarashlari turlicha ekanligi kuzatiladi. Ayrimlar ijtimoiy taʼminot faqat maʼlum aholi qatlamlariga qaratilishi lozimligini taʼkidlasalar, boshqalar uni barcha fuqarolarga tegishli boʻlishi zarur deb hisoblaydilar. Ular bepul taʼlim va bepul tibbiy xizmatni ham ijtimoiy taʼminot tizimiga kiritadilar. Shu bilan birga, baʼzi olimlar ijtimoiy taʼminot faqat davlat budjeti hisobidan moliyalashtirilishi lozimligini taʼkidlashsa, boshqalar esa koʻp manbali moliyalashtirish tizimi shakllanganini va ijtimoiy taʼminot masalalari bilan bir nechta tashkilot shugʻullanishini eʼtirof etadilar.

Har qanday mamlakat aholisi oʻz tarkibi jihatidan bir xil emas va vaqt oʻtishi bilan doimiy oʻzgarib boradi. Shu sababli aholining yashash qonuniyatlari, turmush darajasi va tarkibiy oʻzgarishlari aniq sharoitlarni hisobga olgan holda oʻrganiladi. Qishloq xoʻjaligida band boʻlgan oilalarning demografik tarkibi oʻziga xos boʻlib, bir oilaga oʻrtacha 7,1 nafar kishi toʻgʻri keladi. Masalan, Qashqadaryo viloyati qishloqlarida oʻtkazilgan tadqiqot natijalariga koʻra, oila aʼzolarining 25,0%i ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etsa, 7,0%i nafaqaxoʻr,

68,0%i esa ishlamaydiganlar boʻlib, ulardan 42%i hali 16 yoshga yetmagan bolalardan iborat. Bu demografik holat viloyat qishloqlarida koʻproq ish oʻrinlari yaratish zaruratini koʻrsatadi (Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullayeva M.K., 2011).

Deyarli barcha mamlakatlarda davlat siyosati iqtisodiy oʻsish bilan bogʻliq muammolarni hal etishga yoʻnaltirilgan:

- aholining oʻsish surʼatlarini tartibga solish;
- barqaror iqtisodiy holatni taʼminlash uchun omonat jamgʻarish meʼyorlarini aniqlash;
- innovatsion yutuqlar va mehnat unumdorligini oshirish.

Hududlar miqyosida olib qaralganda, demografik siyosat tugʻilish koʻrsatkichlarini optimallashtirish, bolalar oʻlimini kamaytirish va aholining oʻsishi uchun optimal sharoit yaratishga qaratiladi. Aholi oʻsishini tartibga solish uchun demografik koʻrsatkichlarni chuqur tahlil qilish zarur. Chunki turmush darajasining ijtimoiy tushunchasi bevosita aholi hayoti, yashash tarzi va intellektual salohiyati bilan uzviy bogʻliq. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy salohiyat deganda aholi soni, tarkibi, dinamikasi va intellektual potentsiali tushuniladi.

OECD (2015) o'zining "In It Together: Why Less Inequality Benefits All"² hisobotida iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun zarur ekanligini ta'kidlaydi. OECD'ning tadqiqotlari tengsizlikning yuqori bo'lishi iqtisodiy o'sish jarayonlarini sekinlashtirishi mumkinligini ko'rsatadi. Kambag'allik va tengsizlikka qarshi kurashish esa resurslarni adolatli taqsimlash va ijtimoiy muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Kabeer (2003) "Gender and Poverty: A Review of the Evidence"³ maqolasida gender tengsizligining kambag'allikka ta'sirini o'rganib, xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish orqali ijtimoiy va iqtisodiy farovonlikka erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Uning tadqiqoti xotin-qizlarga ta'lim va ish bilan ta'minlashda teng imkoniyatlar yaratish qashshoqlikni kamaytirish uchun zarur shartlardan biri ekanini ko'rsatadi.

Sen (2001) o'zining "Development as Capability Expansion"⁴ maqolasida rivojlanishni insonning imkoniyatlarini kengaytirish orqali o'lchash lozimligini ta'kidlaydi. U kambag'allikni iqtisodiy daromad kamligidan ko'ra, imkoniyatlar cheklanishi bilan bog'liq masala deb ko'radi. Alkire (2002) esa inson rivojlanishi uchun tushuncha va ko'rsatkichlarni kengaytirishga oid o'z tadqiqotida Senning yondashuvini davom ettirib, imkoniyatlarning kengayishi farovonlikni oshirishda qanday rol o'ynashi mumkinligini tahlil qiladi.

2

https://books.google.co.uz/books?id=aud1CQAAQBAJ&printsec=copyright&redir_esc=y#v=onepage&q&f=false

3

https://eprints.lse.ac.uk/53102/?utm_source=chatgpt.com

Banerjee va Duflo (2011) "Poor Economics"⁵ asarida kambag'allikka qarshi kurashda yangi, radikal yondashuvlarni taklif qiladi. Ular kambag'allikning mikroiqtisodiy jihatlarini o'rganib, kichik o'zgarishlar orqali aholini kambag'allikdan chiqarish mumkinligini misollar bilan ko'rsatadilar. Ularning tadqiqotlari kambag'allikka qarshi kurashda an'anaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishga undaydi va resurslardan samarali foydalanishni taklif qiladi.

Yuqoridagi nazariyalar va tadqiqotlar kambag'allikni kamaytirishda iqtisodiy tengsizlikni bartaraf etish, insonlarning imkoniyatlarini kengaytirish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlash zarurligini asosiy omillar sifatida ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvlar aholining farovonligini oshirishga va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladigan strategiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar kambag'allikni qisqartirish va aholining umumiy farovonligini oshirishda ko'p qirrali va integratsiyalashgan choralarni qo'llash zaruriyatini ochib beradi.

Kambag'allikni qisqartirish loyihalari faoliyatini tahlili

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tadbirlari bir nechta moliyalashtirish manbalariga ega bo'lib, ular ichida davlat byudjeti mablag'lari asosiy ahamiyatga ega va salmoqli o'rinni egallaydi.

Davlat byudjeti xarajatlari 2019-yilda 107118,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa,

4

https://digitallibrary.un.org/record/75128?utm_source=chatgpt.com

5

https://www.prospectmagazine.co.uk/culture/49190/poor-economics?utm_source=chatgpt.com

2023-yilda bu ko'rsatkich 257734 mlrd so'mga yetdi. Jami byudjet xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha xarajatlari yillar davomida o'zgarib borgan: 2019-yilda 54 %, 2020-yilda 50,4 %, 2021-yilda 52,2 %, 2022-yilda 49,7 % va 2023-yilda 50,4 % ni tashkil qilgan. Nafaqa, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari xarajatlarining jami byudjetdagi ulushi 2019-yildagi 4,9 % dan 2023-yilda 7,0 % gacha oshgan. Uy-joy qurish dasturi xarajatlarining ulushi esa 2019-yilda 2,8 % bo'lgan bo'lsa, 2021-yilda

0,4 % gacha kamaygan. Pensiya jamg'armasiga transfertlar ulushi 2019-yilda 4,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 5,8 % ga yetgan.

O'tgan 5 yil davomida ijtimoiy nafaqa, moddiy yordam va kompensatsion to'lovlar xarajatlari hamda pensiya jamg'armasiga transfertlarning ijtimoiy soha xarajatlari tarkibidagi ulushi ortgan bo'lsa, uy-joy qurish dasturi xarajatlari 1,4 % ga kamaygan.

1-jadval

2019-2024 yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlari tarkibida aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarining tutgan o'rni, mlrd. so'mda⁶


Xarajatlar	2019yil	2020yil	2021yil	2022yil	2023yil	2024 yil
Davlat byudjeti xarajatlari	107118,4	131104,5	188257,1	236692,0	257 734	168618,2
Ijtimoiy soha xarajatlari	57822,3	66018,1	92013,6	117691,9	129 891	134 666,6
Jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	54,0	50,4	48,9	49,7	50,4	3,5
Nafaqa, moddiy yordam va kompensatsion to'lovlar xarajatlari	5267,2	6 573,70	10 880,3	19 397,1	18 067	16 270,6
Jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	4,9	5,0	5,8	8,2	7,0	3,5
Ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	9,1	9,9	11,8	16,5	14	3,2
Uy-joy qurish dasturi xarajatlari	2978,1	1 905	2409	1 010,8	1 100	1 410,4
Jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	2,8	1,5	1,5	0,4	0,4	00,6
Ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	5,2	2,9	2,8	0,9	0,8	0,5

⁶ https://senat.uz/events/post-1543?utm_source=chatgpt.com

Pensiya jamg'armasiga transfertlar	4700	8 000	14 700	11 092,0	15 000	16 270,6
Jami byudjet xarajatlariga nisbatan %da	4,4	6,1	8,9	4,7	5,8	1,4
Ijtimoiy soha xarajatlariga nisbatan, %da	8,1	12,1	17,0	9,4	11,5	1,2

COVID-19 pandemiyasi inqirozi barcha mamlakatlarda ijtimoiy himoya muammolarini kuchaytirdi. Aholini qo'llab-quvvatlash choralarida ijtimoiy zaif qatlamlarga yordam ko'rsatish byudjet xarajatlarining dolzarb yo'nalishiga aylandi. 2021-yilda oilalarni ijtimoiy nafaqalar bilan qamrab olish ko'lami

ortishda davom etdi. Natijada, kam ta'minlangan oilalar soni 2020-yil boshiga nisbatan ikki baravarga ko'paydi. 2021-yilda yetim bolalarni qo'llab-quvvatlashga ko'proq e'tibor qaratiladi. Birinchi marta byudjetda chin yetimlarni uy-joy bilan ta'minlash maqsadida 50 mlrd so'm ajratilishi ko'zda tutildi.



3-rasm. Ijtimoiy nafaqalar oluvchilar to'g'risida ma'lumot⁷

Ijtimoiy nafaqalar, moddiy yordam va un narxi kompensatsiyasini hisobga olgan holda davlat byudjetidan amalga oshiriladigan xarajatlar to'g'risida


ma'lumot taqdim etilgan. Jadval ma'lumotlariga qaraganda, davlat byudjeti hisobidan ijtimoiy nafaqalar oluvchilar soni va ijtimoiy himoya uchun ajratiladigan

⁷ https://daryo.uz/2025/06/09/ozbekistonda-nafaqa-oluvchilar-soni-qanchaga-yetgani-ochiqlandi?utm_source=chatgpt.com

xarajatlarning summasi yildan-yilga ortib bormoqda. Xususan, 2023-yilda jami nafaqa oluvchilar soni 2020-yilga nisbatan 780 102 taga, ajratilgan jami xarajat summasi esa 7 186,7 mlrd so‘mga oshgan.

Jumladan, bolali va kam ta‘minlangan oilalarga nafaqa oluvchilar soni 625 800 taga, Qoraqalpog‘iston

Respublikasi va Xorazm viloyatida muhtoj oilalarga bir martalik moddiy yordam oluvchilar soni 6 219 taga, bolalikdan nogironlik nafaqasi oluvchi shaxslar soni esa 35 062 taga oshgan. Ushbu o‘zgarishlar natijasida mos ravishda xarajat summasi 5 093,3 mlrd so‘m, 1,6 mlrd so‘m va 871,2 mlrd so‘mga ortgan.



4-rasm. Ijtimoiy xarajatlarning tarkibi, 2024-yil, trillion so‘m.⁸

Bola tug‘ilganda to‘lanadigan bir martalik moddiy yordam oluvchilar soni 18 920 taga ko‘paygan bo‘lib, xarajat summasi 112,2 mlrd so‘mga oshgan. Zarur ish stajiga ega bo‘lmagan va nogironligi bo‘lgan shaxslarga nafaqa oluvchilar soni 94 561 taga ko‘payib, xarajat summasi 1 053,6 mlrd so‘mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023-yilda dafn uchun to‘lanadigan nafaqa oluvchilar soni 15 228 taga kamaygan bo‘lsa-da, xarajat summasi 14,9 mlrd so‘mga ortgan.

Bunday tizimning saqlanib qolinishi mavjud muammolarni chuqurlashishiga olib keladi va aholini turmush farovonligini yaxshilanmasligiga sabab bo‘ladi.

Kelgusi yilda ijtimoiy xarajatlarga 151 504 milliard so‘m ajratilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bu jami davlat byudjeti xarajatlarining 48,2 foizini tashkil etadi.

Mamlakatimizda ta‘lim sohasini yaxshilashga keng qamrovli yondashuvni aks ettiradi, bunda kasbiy ta‘limga katta urg‘u beriladi. Ushbu yondashuv malakali ishchi kuchini yaratishga va ishsizlikni bartaraf etishga qaratilgan iqtisodiy maqsadlarga mosdir. Biroq, ushbu xarajatlarning kutilgan natijalarga, ya‘ni sifat va kirish imkoniyatlariga javob berishini ta‘minlash uchun ularni monitoring qilish va baholash muhim bo‘ladi.

⁸ https://uz24.uz/uz/articles/byudjet-25-2-26?utm_source=chatgpt.com

2-jadval

Ijtimoiy nafaqa oluvchilar va ularga xarajatlar⁹

№	Xarajatlar	2022 (ijro)		2023 (ijro)		2024 (prognoz)	
		doimiy oluvchilar soni	Summa, mlrd so'm.	doimiy oluvchilar soni	Summa, mlrd so'm	doimiy oluvchilar soni	Summa, mlrd so'm.
Jami		3 831 582	19 703	4 030 611	19 291	3 391 245	8 632
<i>shu jumladan</i>							
1	Kam ta'minlangan oilalar bolalari uchun nafaqa va moddiy yordamlar	2 118 141	11 442,4	2 198 965	12 337,5	1 830 069	10 333,0
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida muhtoj oilalarga bir martalik beriladigan moddiy yordam	17 772	20,7	24 150	19,2	25 484	21,0
3	Bolalikdan nogironlik nafaqasi	332 611	2 632,8	332 667	2 913,5	362 805	3 662,3
4	Bola tug'ilganda to'lanadigan bir martalik to'lov	909 087	571,9	928 800	664,9	555 000	382,4
5	Ayrim toifadagi aholi uchun imtiyozlar o'rniga kommunal to'lovlar uchun kompensatsiya to'lovlari	73 095	141,8	77 757	132,1	77 757	188,1
6	Zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan shaxslar va nogironligi bo'lgan shaxslarga nafaqalar	221 795	1 395,8	285 353	1 679,9	329 023	2 526,6
7	Dafn uchun to'lanadigan nafaqa	154 894	192,4	162 460	268,1	166 126	246,7
8	Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash	245	60,3	774	120,1	822	140,1

Mamlakatimizda ta'lim sohasini yaxshilashga keng qamrovli yondashuvni aks ettiradi, bunda kasbiy ta'limga katta urg'u beriladi. Ushbu yondashuv malakali ishchi kuchini yaratishga va ishsizlikni bartaraf etishga qaratilgan iqtisodiy maqsadlarga mosdir. Biroq, ushbu

xarajatlar kutilgan natijalarga, ya'ni sifat va kirish imkoniyatlariga javob berishini ta'minlash uchun ularni monitoring qilish va baholash muhim bo'ladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maktabgacha va maktab

⁹ Fuqarolar uchun byudjet 2024 loyiha.

ta'limiga berilayotgan ustuvorlik strategik yo'nalishni aks ettirib, uzoq muddatli iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

2024-yilda byudjetdan tash qari Pensiya jamg'armasi xarajatlarini o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida 16,0 trln so'm miqdorida transfertlar ajratilishi rejalashtirilgan.


Har qanday davlatning iqtisodiyot va siyosatidagi xususiyatlari uning xarajatlari ustuvorliklarida ham aks etadi. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda har yili mamlakatning soliq va budjet siyosatining asosiy yo'nalishlari belgilanadi va ular davlat budjetni ishlab chiqishda asos sifatida xizmat qiladi.

Davlat byudjetining ijtimoiy soha xarajatlari kambag'allikni qisqartirish va aholining turmush darajasini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mazkur xarajatlar nafaqat aholining asosiy ehtiyojlarini

qondirish, balki iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish va barqaror rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohasiga yo'naltirilgan mablag'lar eng ehtiyojmand qatlamlarni qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Kambag'allikni qisqartirish davlatning iqtisodiy siyosatidagi asosiy ustuvor vazifalardan biri bo'lib, ushbu maqsadga erishish uchun ijtimoiy soha xarajatlarini nafaqat oshirish, balki ularni samarali boshqarish zarur. Aholining ijtimoiy himoya tizimidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, bepul yoki imtiyozli xizmatlar orqali turmush darajasini yaxshilash va iqtisodiy faollikni oshirish imkonini beradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi davlat budjet xarajatlarining amaldagi tarkibi quyidagicha:



5-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjet xarajatlarining amaldagi tarkibi¹⁰

¹⁰ Ochiq budjet axborot portali ma'lumotlari.

Kelgusida ijtimoiy xarajatlarning samaradorligini ta'minlash uchun manzilli dasturlarni kengaytirish, infratuzilmani yaxshilash hamda bandlikni ta'minlashga qaratilgan tashabbuslarni amalga oshirish zarur. Ushbu yo'nalishlarda chuqur tadqiqotlar olib borish ijtimoiy siyosatni takomillashtirish va aholi farovonligini yuksaltirishga qaratilgan samarali strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

XULOSA

Bu aholi turmush darajasini oshirish, qashshoqlikni kamaytirish, ishsizlik darajasini pasaytirish, mehnat bozoriga qo'shimcha faol dasturlarni joriy etish, aholini qo'llab-quvvatlash bo'yicha manzilli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish, maqsadli davlat dasturlari loyihasini takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Bundan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash mumkin, kambag'allikni qisqartirishni o'rganishda ekonometrik modellarni qo'llashda bir qator omillar xarakterlidir: aholining qarishi va migratsiya o'zgarishlarining bugungi sharoitida yoshlar, ayollar, keksa ishchilar, shuningdek, kambag'allik darajasi past. malakali ishchilar ishchilar soni va ularning tegishli kuzatishlari: yillik statistik ma'lumotlar, miqdoriy ko'rsatkichlardan tashqari sifat ko'rsatkichlarining mavjudligi: ishlab chiqilgan dastur va qarorlarning ta'sirini keltirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, kambag'allikni qisqartirishni o'rganishda ekonometrik modellardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari borligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cascarilla C. (2015). Bitcoin, Blockchain, and the Future of Financial Transactions. CFA Institute Publications. ThirdQuarter 2015. Vol. 32. Iss. 3.
2. Kortleben H., Vollmar B. 2012, Crowdfunding: An alternative in start-up

- financing” PFH
Forschungspapiere/ResearchPapers
Göttingen, Deutschland: Private University of Applied Sciences (PFH). No. 2012/06.
3. Leimeister, J. M. (2012): Crowdsourcing, Crowdfunding, Crowdvoting, Crowdcreation. 388 – bis 392. St.Gallen, CH:Zeitschrift für Controlling und Management.
 4. Sriram M.S. (2005). Information asymmetry and trust: a framework for studying microfinance in India. Vikalpa, 30(4),77-86.
 5. Sanjeyev G. (2009). Effect of Remittances on Poverty and Financial Development in Sub-Saharan Africa. Journal ofWorld Development. Vol. 37. Iss. Pp. 104-115.
 6. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik. –T.: —Iqtisodiyotl, 2013. 125-b.
 7. Ruxshona I. Optimization of social support expenditures within the state budget expenditures/ Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development 23 25-32, 2024
 8. Kamolov D., Ismoilova D. RAQAMLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TA'SIRI //Science technology&Digital finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 301-306.
 9. Mamlakatimizning iqtisodiy taraqqiyoti va aholi farovonligini ta'minlash: yutuqlar, tendensiya va istiqbollari. Ilmiy-ommabop risola. TMI. T.: 2016. 47-b.
 10. <https://data.worldbank.org/indicator/SI.POV.DDAY>
 11. Kamolov D., Ismoilova D. THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN //Science technology&Digital Finance. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 301-306.